

MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK – HAYOTI VA IJODI

Bozorboyeva Sabrina Boxodirovna

Talaba. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

sabrinabozorboeva6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18397509>

Annotatsiya. Maqolada Muso Toshmuhammad o'g'li oybekning hayot yo'llari, u ta'lim olgan bilim yurtlari hamda undagi mushkulotlar, uning adabiyotga kirib kelishi va undagi faoliyati, turmushidagi voqealar rivoji, bundan tashqari, adibning ish faoliyati hamda urush yillarida barcha qatori ko'rsatgan jonbozliklari va uni zo'r realistik va asosli voqealar asosida yaratgan asarlari, shuningdek, metindek iroda bilan xastalikda Zarifa opa yordami va mehribonchiligi bilan yaratilgan asarlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье рассмотрен жизненный путь сына Мусы Ташмухаммада Айбека, учебные заведения, в которых он получил образование и трудности там, его вступление в литературу и работа в ней, развитие событий в его жизни, кроме того, творчество писателя и всех серий в годы войны приводятся сведения о проявленном им мужестве и произведениях, созданных им на основе превосходных реалистических и разумных событий, а также произведениях, созданных с помощью и добротой сестры Зарифы во время ее болезни.

Annotation. In the article, the life paths of Musa Tashmuhammad's son Aibek, the educational institutions where he was educated and the difficulties there, his entry into literature and his work in it, the development of events in his life, in addition, the work of the writer and all the series during the war years Information is given about the courage he showed and the works he created on the basis of excellent realistic and reasonable events, as well as the works created with the help and kindness of Sister Zarifa during his illness.

Biz ko'plab asarlar o'qir ekanmiz, shoirlar hamda yozuvchilarning faqat yorqin asarlari va she'rlariga mahliyo bo'lamiz. Bizga yozib qoldirgan nodir qo'lyozmalarini ko'klarga ko'tarib, ularga tasannolar aytamiz ammo ba'zida bu qo'lyozmalar, asarlar bizgacha yetib kelishida, ularni nashr qildirishdagi ba'zibir qiyinchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni adib va shoirlarning hayot yo'llari bizga so'zlab beradi.

O'zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, barcha kitobsevarlar uchun qadrdon bo'lgan, o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri ulug' shoir, adib va olim Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek Toshkent shahrining bo'zchi oilasida, yangi shahar bilan eski shaharni bog'lovchi Shayxontohur ko'chasining Xadraga yaqin, hozir Xamza teatri joylashgan manzilida, teatr bilan ko'hna dorixona binosining o'rtasidagi ko'chadan tepalikka qarab ko'tarilganda, Govkush nomli mahallada 1905-yilning qish chillasida, 10-yanvar kuni ana shu mahallaning tor va egri ko'chalaridan biridagi ko'rimsizgina uyda dunyoga keldi.

Uning bolalik va o'smirlilik davrlari shu mahallada o'tdi.

Oybek dastlab o'rta maktabda, so'ngra 1922-1925-yillarda Navoiy nomidagi Toshkent ta'lim va tarbiya texnikumida tahsil ko'rdi. Aynan shu ilm dargohi uni Zarifa opa bilan tanishishiga sababchi bo'ldi. Oybek texnikumdagi "Tong yulduzi" devoriy gazetaning muxarriri edi. U ba'zi sabablar topib Zarifa opa bilan suhbatlashishga harakat qilgan.

Zarifa opadan o'zining she'rlariga rasmlar chizishni iltimos qilardi va shu yo'sinda ular asta sekin yaqin tanishlar bo'lib bordi. "Oybek oriqlar va novcha yigit bo'lib, qo'ng'ir qivroq qalin sochlari do'ppisidan toshib turardi (uning sochlari keyin qoraya boshlagan). Yirik ko'zlari shogirdlik davridayoq teran ma'noli va hayolchan edi" – deb ta'rif beradi Zarifa opa. Hatto Zarifa opaning otasi Saidnosir Mirjalil o'g'li ham Oybek haqida ijobiy fikrda bo'lgan va nohaq ayblovlar sabab bo'lgan surgun muddati tugab uyga qaytganda ularning turmushidan mamnun bo'lgan.

Oybek texnikumni tugatgach, O'rta Osiyo davlat dorulfununining ijtimoiy fanlar fakultetining siyosiy iqtisodiyot bo'limiga o'qishga kirdi. So'ngra 1927-yilda Leningradga o'qishga ketdi. Oybek Leningraddagi Plexanov nomli xalq xo'jaligi institutida o'qiy boshladi.

Leningraddagi o'qish davrlari adib uchun qiyin kechadi. Uzliksiz sovuq kunlar va tark etmayotgan kasallik uni holdan toydiradi. 1929-yilning fevral-mart oylarida Oybekning xastaligi ancha og'irlashadi. Ammo u ushbu qiyin vaqtlarda ham izlanishdan va yozishdan to'xtamaydi.

Oybek nafaqat adib, shoir balki teran fikrli siyosatshunos iqtisodchi ham bo'lgan.

Keyinchalik uning oldida hayot yo'lini belgilab beradigan ikki yo'l bo'lgan. U iqtisod sohasidagi izlanishlarini to'xtatib, yuragiga yaqin bo'lgan adabiyot yo'lini tanlaydi.

Oybek adabiyotga o'zining 1926-yilda chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib keldi. U tarixiy va zamonaviy mavzularda 20 dan ortiq dostonlar yaratdi. Oybek she'riyati nihoyatda go'zal bo'lib, o'zining sodda va ravon tilda, boy va rang-barang tasviriy vositalar bilan yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Adibning avtobiografik qissasi "Bolalik" 1963-yilda yaratilgan. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso, ya'ni Oybekning o'zidir.

Barcha ziyoli kishilar ustidagi qora bulut Oybekni ham chetda qoldirmadi. U 1-oktabrda "xalq dushmanlarining dumi" sifatida til va adabiyot institutidan bo'shatildi. Endi u faqat yaqin tanishlari orqali faqat tarjimonlik va birmuncha mayda yumushlarni ermak qilib yurdi. Afsuski, shu kuni Yozuvchilar uyushmasining mash'um IV plenumida tuhmatlarga uchrab, yozuvchilar uyushmasidan ham chiqarildi. Ayniqsa, Zarifa opani ham ba'zi sabablarga ko'ra asta sekin lavozimidan siqib chiqarishdi. Butunlay ishlaridan mahrum bo'lgan oila boshidan sinovli kunlarni o'tkazmoqda edi. Oldin Zarifa opa ishga qaytdi, so'ngra, Oybek 1939-yil aprelda uyushma a'zoligiga qayta qabul qilindi.

Oybek va Zarifa opa bir yer sotib olishdi va 2 yil 1440-1441-yillar qurilish tashvishi bilan o'tdi. Endi yorug' kunlar kelishiga ishongan oilani yangi sovuq xabar erta tongdan qarshiladi. "Urush boshlanibdi" bu mash'um xabar katta-yu kichikning qalbini istirobga to'ldirdi. Negaki, butun xalq "Urush" so'zi negizida begunoh qurbonlar, bamsoli qonli daryolar, insonlarning kesilgan boshlaridan yasalgan tepaliklarni fahmlar edilar.

Barcha o'zbek o'g'lonlari kabi Oybek ham qo'l qovushtirib o'tirolmadi. Oybek urushga qatnashish maqsadida ketma-ket xat yoza boshladi. Ammo bularning bari bekor chunki harbiy kamissariatdagilar Oybekni front ortida kerak deb hisoblashardi. Vanihoyat, Oybek boshqa yo'l orqali urushga borishga muvaffaq bo'ldi. 1942-yil noyabrning so'nggi haftasida O'zbekiston yoshlar tashkiloti Markaziy Qo'mitasining kotibi Eson Rahimov boshchilik qilgan ikkinchi o'zbek badiiy brigadasi poyezdda Moskva sari yo'l oldi. Oybek bilan birgalikda jami 16 kishi edi.

U frontda urushning butun daxshatlarini, jangchilarning mashaqqatli harbiy hayotlarini, sovetlar vatanining xar bir qarich yeri uchun to'kilayotgan qonni o'z ko'zi bilan ko'rgan bo'lsa ham, uning nazarida, uning mahorabadan olgan taassurotlari bir roman uchun hali yetarli emas edi.

Shuning uchun ham u san'atkor yurtdoshlaridan ajralgan holda xarbning "har bir kavagi" ga kirib chiqmoqchi bo'ladi. Oybek urushning jonli ko'rinishlarini qalamga olar edi. Urushning daxshatini, unda shahid ketgan birodarlarining xotiralarini jonli namoyish qilishni u o'z burchi deb bilgan. Keyinchalik "Quyosh qoraymas" romanida tasvirlangan, adibning o'zi shohid bo'lgan urush manzaralarini oq qog'ozga tushirgan.

Oybek 1943-yil 3-noyabrda qabul qilingan qarorga muvofiq O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib tayinlandi. Urush tugagan kezlardan so'ng Oybek Yozuvchilar uyushmasigara is etib tayinlandi. 1945-yildan "Sharq yulduzi" jurnalining muharriri bo'lib ishladi. Oybek bir necha ahamiyatli lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan bo'lib, 1946-yil 10-fevralda ittifoq Oliy sovetida duputat qilib saylandi. Oybek hamisha el dardi bilan hamnafas bo'lgan, har doim haq so'zni so'zlagan, asarlarida namoyon qilgan. Afsuski, har davrda mevali daraxtga tosh otuvchilar topilganidek, Oybekka qarshi kuchlar 1949-yilning 10-iyulida uni Yozuvchilar uyushmasi hay'atining raisi lavozimidan ozod qilishga erishdilar. Oybek hayoti davomida ko'p qiyinchiliklar va nohaqliklarga guvoh bo'lib kelgan. 1951-yilning boshlarida ortiq ruxiy va jismoniy azoblarga dosh berolmagan miya tomirlari yorilib, sakta kasalligi ro'y bergan edi. Oybek mikroinsultni ham boshidan o'tkazdi.

Oybek o'lim to'shagida turib, yana 17 yil umr ko'rdi. Tugallanmay qolgan "Quyosh qoraymas" romanini, "Nur qidirib" qissasini yozib tugatdi. "Oltin vodi ydan shabadalar" romanini qayta ishlab chiqdi. "Ulug' yo'l" romani, "Bolalik xotiralarim", "Bola Alisher" qissalari, "Guli va Navoiy", "Davrim jarohati" kabi dostonlar yaratdi. Oybek xastalik chog'ida garchand so'nggi kunlariga qadar so'zlash qobiliyatini to'la tiklay olmagan bo'lsada, xastalik ustidan, zaharli chayonlar(dushmanlar) ustidan g'alabaga erishdi. Adib xasta bo'lsa ham ilhomga, ijodiy rejalarga to'lgan holda yashadi. U oyoqqa turgach, qadrdon ko'chalarni kezib, sevimli oyning oltin shu'lalari ostida asta-asta qadam bosishni o'ylar ekan, uning qalbidagi ilhom bulog'i jo'shib, nafis tuyg'ular favvorasi otilib turardi.

Oybekning davrdoshlari uni har doim o'ychan, hayolchang deb ta'riflashadi. Oybek har nafasda yangidan yangi asarlar, oltin misralarni hayolida pishirib yurar edi. Ba'zan hamrohining suhbatini eshitmay ham qolardi. Uni tanimaganlar bu kabi vaziyatlarni kibrga yo'yishi mumkin, ammo uning yaqinlari uchun bu odatiy hol bo'lgan. Oybek umri davomidagi barcha asarlarini Zarifa opadan ilhomlanib yozgan. Zarifa opa haqiqatdan u uchun ilhom parisi edi. Zarifa opa har qanday masalada Oybek uchun tirkak bo'lgan. Katta-katta romanlar yozishga, tarixiy mavzularda ijod qilishga unga shijoat bag'ishlagan. Oybek xastalik chog'ida gapirish va yozish qobiliyati bo'lmaganda ham Zarifa opaga aytib turish orqali xalqimizga nodir asarlar qoldirdi. Adib 1968-yil 1-iyulda payg'ambar yoshida vafot etdi. Oybek vafotidan so'ng uning 20 jildlik to'la asarlar to'plami chop etildi va 2001-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

O'zbek adabiyotida shunday ijodkorlar borki, ularning asarlari faqat o'z davri uchun emas, balki keyingi avlodlar uchun ham ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek ana shunday ulug' siymolardan biridir.

Uning ijodini o'rganar ekanman, Oybekni nafaqat shoir yoki yozuvchi sifatida, balki xalq taqdiri, millat dardi va inson qalbini chuqur his eta olgan mutafakkir adib sifatida angladim.

Oybek ijodining eng muhim jihatlaridan biri — undagi samimiyat va hayotiylikdir. U yozgan she'rlar, dostonlar va romanlarda sun'iylik sezilmaydi. Har bir satr ortida muallifning ichki kechinmalari, hayotiy kuzatuvlari va inson taqdiriga bo'lgan befarq bo'lmagan munosabati mujassam. Ayniqsa, Oybek asarlarida oddiy xalq hayoti, ularning orzu-umidlari, dardi va quvonchi chuqur aks etgani e'tiborni tortadi. Bu jihat uning ijodini o'quvchiga yaqinlashtiradi.

Oybek ijodini o'rganish jarayonida shuni angladimki, u adabiyotga faqat go'zal so'zlar yig'indisi sifatida qaramagan. U uchun adabiyot — tarbiya vositasi, xalqni uyg'otuvchi kuch, millatni o'zligini anglashga chorlovchi maydon bo'lgan. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi asarlarida bu holat yaqqol seziladi. U o'tmishga murojaat qilar ekan, uni shunchaki tasvirlab bermaydi, balki tarixdan saboq chiqarishga undaydi.

Oybekning tarixiy romanlari orqali o'quvchi nafaqat muayyan davr voqealari bilan tanishadi, balki o'sha davr insonlarining ruhiy holati, dunyoqarashi va ichki kurashlarini ham his qiladi. Masalan, "Navoiy" romani orqali men Alisher Navoiy siymosini faqat buyuk shoir sifatida emas, balki xalq taqdiri uchun kurashgan, adolat va ma'rifat yo'lida yashagan ulug' inson sifatida yanada chuqurroq angladim. Bu asarda Oybek Navoiy shaxsiyatini ideallashtirib yubormaydi, aksincha, uni tirik, his qiladigan, iztirob chekadigan inson sifatida tasvirlaydi.

Oybek she'riyatida esa lirizm va falsafiy mushohada uyg'unlashganini ko'rish mumkin. Uning she'rlarini o'qir ekanman, satrlar orasidan muallifning hayotga, zamonga va inson taqdiriga bo'lgan munosabatini his qildim. Oybek she'rlarida tabiat tasviri ko'pincha inson ruhiyati bilan bog'lanadi. Tabiat manzaralari orqali u insonning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Bu uslub she'rlarni yanada ta'sirchan va mazmunli qiladi.

Oybek ijodida vatanparvarlik g'oyasi alohida o'rin tutadi. Ammo bu vatanparvarlik balandparvoz shiorlar orqali emas, balki xalq taqdiriga achinish, millat kelajagi haqida qayg'urish orqali ifodalanadi. U vatanni faqat geografik hudud sifatida emas, balki til, madaniyat, tarix va insonlar birligi sifatida tasavvur qiladi. Shu sababli ham Oybek asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Adibning tili sodda, ravon va ta'sirchan. U murakkab fikrlarni ham oddiy so'zlar orqali yetkazib bera olgan. Bu esa uning asarlarini keng kitobxonlar ommasi uchun tushunarli qilgan.

Oybek asarlarini o'qir ekanman, matndan charchamadim, aksincha, fikrdan fikrga o'tib, mazmunni chuqurroq anglashga intildim. Bu holat adibning badiiy mahorati yuqori darajada ekanidan dalolat beradi.

Oybek ijodining yana bir muhim tomoni — unda insonparvarlik g'oyasining ustuvorligidir.

U qaysi mavzuda yozmasin, markazda doimo inson turadi. Insonning sha'ni, qadr-qimmati, erkinligi Oybek uchun eng muhim masalalardan biri bo'lgan. Uning qahramonlari hayotda duch keladigan qiyinchiliklar, ichki ziddiyatlar va tanlovlar orqali o'quvchi o'z hayoti haqida ham o'ylab qoladi.

Talaba sifatida Oybek ijodini o'rganish menga nafaqat adabiy bilim berdi, balki hayotga boshqacha nazar bilan qarashga ham o'rgatdi. Uning asarlarida sabr, matonat, bilimga intilish va adolatga sadoqat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi.

Bu fazilatlar bugungi yoshlar uchun ham juda muhim, deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan, ijodi bilan millat ma'naviyatini boyitgan buyuk adibdir. Uning asarlari faqat o'tmish yodgorligi emas, balki bugungi va kelajak avlod uchun ham ma'naviy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Oybek ijodini o'rganish orqali biz nafaqat adabiy zavq olamiz, balki insoniylik, vatanparvarlik va ma'rifat yo'lida yashashning asl mohiyatini anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov, "Oybek va Zarifa", 2005.
2. Zarifa Saidnosirova, "Oybegim mening". ("Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati-2005)
3. <https://tafakkur.net/muso-toshmuhammad-ogli-oybek.haqida>.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oybek>.